


# «Toshkent-Samarqand» yo'nalishidagi avtomobil yo'larni yo'l infratuzilmasini yanada rivojlantirish va yo'l harakatini tashkil etishtizimini takomillashtirish

**Xamidov B.I. (talaba)**

**Ilmiy raxbar: ass. Raxmonov A.S.**

Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan masofa M39 yo'lini 310 kilometrni tashkil etadi. Transport vositalari Toshkentdan Samarqand gacha bo'lgan masofani bosib o'tish uchun avval M39 raqamli yo'l orqali chiqishadi so'ngra Sirdaryo viloyatida M34 yo'lga o'tiladi. So'ngra A373 yo'li bilan xarakatlanib yana M39 yo'lga o'tiladi va Samarqandgacha shu M39 yo'lida xarakatlanadi. Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan yo'lni yengil avtomobillar 4,5 soatda yuk avtomobillari 5,5 soatda avtobuslar esa 5,5 soatda bosib o'tishadi. Toshkentdan Samarqandacha bo'lgan yo'llar Toshkent, Sirdaryo Jizzax viloyatlari orqali o'tgan (1-rasm).



1-rasm. Toshkent Samarqand yo'nalish yo'l xaritasi

Ishning maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi - yo'llarning ish sharoitlarini o'rganish, yo'l harakati xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ilmiy asoslash va xalqaro yo'llarda yo'l harakati xavfsizligini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish (masalan, M39 yo'li).

Ushbu maqsadga erishish uchun M39 xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yo'lda quyidagi vazifalarni hal qilish kerak: transport va ekspluatatsiya

ko'rsatkichlari eksperimental tekshiruvini - avtomagistralning avtomat telefon aloqasi ishlarining yo'llari;

Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llarining xarakteristikasi (masalan, M39 yo'llari) ning aralash transport oqimlarining harakat xavfsizligini ta'minlovchi yo'l omillarini aniqlash;avtomobil yo'llarining yo'l harakati xavfsizligi uskunalarini (ishoratlarni va boshqalarni) o'rganish;axborot texnologiyalari vositalarini jihozlash va joriy etish masalalari bo'yicha tadqiqotlar;transport vositalarining aksi (og'irligi) ustiga yukni etkazib berish masalasini o'rganish;aqlli transport vositalarini va aqlli yo'llarni (ehtimol pilot loyiha) elementlarini kiritish va sinovdan o'tkazish.[1]

Bu yo'nalishda yirik infratuzilma obyektlarini qurish, zamonaviy avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish, eng muhim tranzit transport yo'llaridan biri xisoblangan "Toshkent — Samarqand" transport yo'llarini xam kompleks rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Shu bilanbirga, "Toshkent — Samarqand" yo'nalishidagi avtomobil yo'llarini qulay va shinam qilish, yo'l harakatini axborotlar bilan ta'minlash, yo'l bo'yidagi infratuzilmani xalqaro standartlar talablari gamuvofiq rivojlantirish bilan bog'liq ko'plab masalalarga lozim darajada e'tibor qaratish lozim.

Quyidagilar bunday holatning asosiy sabablarini hisoblanadi.

Jumladan svetofor bilan tartibga solish, yo'ldagi to'siqlarni, yo'l ustiga chiziqlar tortish va yo'l belgilarini qo'llashga doir standartlarni yangilash talab etiladi;

Yo'l belgilarini ishlab chiqarish va o'rnatishga doir ishlarni tashkil etish hamda o'tkazishga, yo'l ustiga nur qaytaruvchi xususiyatga ega zamonaviy texnologiyalar asosidagi bo'yoqdan, shuningdek, boshqa sifatli materiallardan foydalangan holda o'chib ketmaydigan chiziqlar tortishga tizimli yondashish. Respublika avtomobil yo'llarida o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra ming dan ortiq eskirgan yo'l belgilarini almashtirish, shuningdek, qo'shimcha ravishda mingdan ziyod yangi ko'rsatkichlar o'rnatish zarurligi aniqlandi;

Avtomobi lyo‘llarini, ayniqsa xalqaro ahamiyatga molik, “Toshkent — Samarqand” yo‘nashidagi avtomobil yo‘llarini ko‘rsatkich belgilari bilan, shu jumladan yo‘l belgilarini, belgilangan tezlik belgisi, radarlar soni va ularni borligidan xabardor qiluvchi yo‘l belgilarini zamonaviy xalqaro tajribani hisobga olgan holda yangilash, chet tillardagi ko‘rsatkich belgilari bilan jihozlash bo‘yicha ishlar yetarli darajada tashkil etish lozim.

“Toshkent — Samarqand” yo‘nalishida yo‘l harakatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, avtomobil yo‘llari infratuzilmasini ilg‘or xorijiy tajriba asosida rivojlantirish va yo‘l harakati ishtirokchilari uchun yuqori darajada qulaylik yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 26-iyul, 584-son qarori asosida quydagi chora tadbirlarni amalga oshirish lozim.

birinchi — yo‘l ustiga chiziqlar tortishda, yo‘lovchilar o‘tish joylarini, avtomobil yo‘llari kesishadigan va tutashadigan joylarni, avtomobillarning qisqa muddat to‘xtab turish va to‘xtash joylarini qurishda innovatsion ishlanmalarni hamda nur qaytaruvchi materiallarni qo‘llash asosida yo‘l harakati ishtirokchilari xavfsizligini ta‘minlash;

ikkinchi — yo‘l harakati ishtirokchilarini yo‘nalish bo‘ylab sifatli navigatsiya bilan ta‘minlaydigan yo‘l belgilari va axborot ko‘rsatkichlarini, shu jumladan chet tillardagi yo‘l belgilari va axborot ko‘rsatkichlarini yetarli miqdorda o‘rnatish orqali “gapiradigan yo‘l” prinsipi bo‘yicha yo‘l harakati ishtirokchilarining xabardorligini oshirish”;

uchinchi — avtomobil yo‘llari foydalanuvchilariga yuqori darajada qulaylik yaratish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yo‘l bo‘yi hududlarini to‘liq ko‘kalamzorlashtirish, obod qilish va me‘moriy-landshaft loyihasini tuzish, mazkur hududlarda infratuzilma obyektlarini oqilona qurish hisobiga transport vositalarining ekologiyaga salbiy ta‘sirini kamaytirish;

to‘rtinchi — axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, texnik vositalar va dasturiy mahsulotlarni avtomobil yo‘llarini qurish, to‘g‘rilash va ulardan foydalanish jarayoniga keng joriyetish;

beshinchi — yo‘llarni ta‘mirlash ishlari sifatini oshirish va hududlarni obod qilish, shuningdek, tartibga solishning texnik vositalariga qo‘yilgan zamon talablariga javob beradigan, shuningdek, respublika hududlarining tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashtirilgan zamonaviy chidamli materiallardan, butlovchi, tarkibiy qismlardan foydalanish hisobiga avtomobil yo‘llaridan foydalanish daxarajatlarni kamaytirish.[2]

Bu chora tadbirlar amalga oshirilayotgan 2018—2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida yo‘lharakati xavfsizligini ta‘minlash konsepsiyasi doirasida yo‘l infratuzilmasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib ham belgilangan.

Dasturniamalgaoshirishdoirasida:

O‘zbekistonRespublikasiAvtomobilyo‘llaridavlat qo‘mitasiga.

2019-yilda “Toshkent — Samarqand” yo‘nalishibo‘ylabuzunligi 5 kilometr bo‘lgan M-39 avtomobil yo‘llari uchastkalarini va “Guliston — Dashtobod” yo‘nalishi bo‘ylab uzunligi 5 kilometr bo‘lgan M-34 avtomobil yo‘llari uchastkalarini qurish hamda rekonstruksiya qilish bo‘yicha dastlabki loyihalarni amalga oshirsh, energiyaning muqobil manbalari asosida ko‘cha chiroqlari va yo‘lni tartibga soluvchi texnikvositalarni, svetodiodlar va nurqaytargichlardan foydalangan holda yo‘l belgilarini, shuningdek, avtomobil yo‘llari atrofidagi hududlar landshaftini loyihalash tirish va ularni ko‘kalamzorlashtirishning zamonaviy elementlarini o‘rnatsih vazifalari belgilangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.AzizovQ.H.Xarakat xavfsizligini tashkil etish asoslari “Toskent” 2009
- 2.Z.X.Saidov, T.J. Amirov, X.Z. G‘ulomova; Avtomobil yo‘llari: Materiallar, qoplamalar, saqlash va tamirlash . Toshkent 2010 y.